



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 4-oktabr

514-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 2 oktyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-son qarori ijrosi haqida”gi 455-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son Farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 2 oktyabrdagi 455-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 2 oktyabrdagi 455-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PQ-335-son qarori bilan:

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – Turizm qo‘mitasi), Sog‘liqni saqlash vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Tashqi ishlar vazirligining:

“Tibbiy xizmatlar mehmondo‘stligi” (“Medical service hospitality”) dasturini amalga oshirish;

davlat va xususiy tibbiyot muassasalari hamda sanatoriy va pansionatlar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini monitoring qilish tizimini joriy qilish;

konsalting – diagnostika – davolash – turoperator – transport - tibbiy tarjimon xizmatlarini birgalikda ko‘rsatadigan tibbiy turizm klasterlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy qilish;

“Avitsenna” nomi ostida O‘zbekiston Respublikasining tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmi brendini ishlab chiqish va uni doimiy ravishda targ‘ib qilib borish;

toifali (yulduzli) mehmonxonalar tipidagi sanatoriylar faoliyatini yo‘lga qo‘yish va ularni sertifikatlashtirish tizimini joriy qilish;

tog‘li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) ob‘ektlari mavjud bo‘lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish;

2025-yil 1-aprelga qadar internet tarmog‘i orqali yashovchilarni hisobga olishning avtomatlashtirilgan maxsus elektron dasturi (E-mehmon)ga ulangan xususiy tibbiyot va

sogʻlomlashtirish muassasalarini dastlabki olti oylik abonent toʻlovini toʻlashdan ozod qilish toʻgʻrisidagi takliflari maʼqullanganligi;

Tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq;

Zamonaviy talablar asosida sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish rejalashtirilgan tuman va shaharlar roʻyxati 2-ilovaga muvofiq;

2025-2026-yillarda Andijon, Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Fargʻona va Toshkent viloyatlarida zamonaviy talablar asosida sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish boʻyicha chora-tadbirlar dasturlari 2a-2j-ilovalarga muvofiq;

Tibbiyot va sogʻlomlashtirish muassasalarining shifokorlari tomonidan bepul tibbiy diagnostika xizmatlarini tashkil qilish bilan bogʻliq xarajatlari qoplab beriladigan xorijiy mamlakatlar roʻyxati (keyingi oʻrinlarda – xorijiy mamlakatlar) 3-ilovaga muvofiq;

2024-2027-yillarda tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Andijon, Namangan, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Fargʻona va Toshkent viloyatlari hokimliklariga Turizm qoʻmitasi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi bilan birgalikda mazkur qarorning 2-ilovasida belgilangan sanatoriy-kurort zonalariga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish choralarini koʻrish vazifasi belgilanganligi;

oʻrnatilgan tartibga muvofiq;

Xalqaro qoʻshma komissiyadan (Joint Commission International) akkreditatsiyadan oʻtgan dastlabki 30 ta xususiy tibbiyot muassasasining akkreditatsiyadan oʻtish xarajatlarining 50 foizi Sogʻliqni saqlash vazirligining budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlari hisobidan qoplab berilishi, bunda imtiyozdan foydalangan xususiy tibbiyot muassasasi bilan affilangan shaxslarga mazkur imtiyoz taqdim etilmasligi;

shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sogʻlomlashtirish ahamiyatiga molik suv (termal suv) obʻektlaridan tibbiyot muassasalari, sanatoriy va pansionatlar teng va umumiy tartibda foydalanishi;

belgilanishicha:

a) 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

2028-yil 1-yanvarga qadar Yagona reestrda kiritilgan tibbiyot va sogʻlomlashtirish muassasalarining xalqaro turizm yarmarkalari va koʻrgazmalarda oʻz xizmatlari hamda mahsulotlari bilan ishtirok etish xarajatlari Sogʻliqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan qoplab berilishi;

2027-yil 1-yanvarga qadar tibbiyot va sogʻlomlashtirish muassasalarining shifokorlari tomonidan xorijiy mamlakatlarda bepul tibbiy diagnostika xizmatlarini tashkil qilish bilan bogʻliq transport va yashash xarajatlari Sogʻliqni saqlash vazirligining budjetdan tashqari jamgʻarmalari mablagʻlari va Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan teng ulushlarda qoplab berilishi;

b) xorijiy mamlakatlarda bepul tibbiy diagnostika xizmatlarini tashkil qiladigan tibbiyot va sogʻlomlashtirish muassasalarining shifokorlari roʻyxati Yagona reestrda kiritilgan muassasalar orasidan Sogʻliqni saqlash vazirligi va Turizm qoʻmitasi bilan birgalikda shakllantirilishi;

d) Yagona reestrda kiritilgan tibbiyot va sogʻlomlashtirish muassasalari, reytingda 70 va undan yuqori ball olgan tibbiyot muassasalari, sanatoriy va turoperatorlar xizmatlari hamda muhsulotlarini xorijiy mamlakatlarda targʻib qilish uchun bosma va video mahsulotlarni tayyorlash Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan amalga oshirilishi;

e) elektron platforma hamda Yagona reestr Turizm qoʻmitasi buyurtmasi asosida ishlab chiqilishi va Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan moliyalashtirilishi;

Turizm qoʻmitasi Oʻzbekiston Respublikasining tibbiy va sogʻlomlashtirish turizmi imkoniyatlarini targʻib qilish sohasidagi vakolatli organ etib belgilanganligi;

Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga bir oy muddatda boʻsh turgan davlat mulki obʻektlari va sobiq tibbiyot

muassasalarining ishlamayotgan binolari negizida tibbiyot klinikalari faoliyatini tashkil qilish maqsadida xatlov o'tkazish va Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish vazifalari belgilanganligi e'tiborga olinsin.

3. Quyidagilar:

Mingbuloq tumanida tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o'rinbosarlari H.Boylarov va J.Raximov mas'ul idora va tashkilotlar bilan birgalikda mazkur qarorning 1-ilovasida belgilangan chora-tadbirlar dasturlari ijrosini o'z vaqtida va sifatli ta'minlasin.

5. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Abdusalomov tegishli tashkilotlar bilan birgalikda bir oy muddatda tumandagi bo'sh turgan davlat mulki ob'ektlari va sobiq tibbiyot muassasalarining ishlamayotgan binolari negizida tibbiyot klinikalari faoliyatini tashkil qilish maqsadida xatlov o'tkazsin va viloyat hokimligiga taklif kiritsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.Mansurov

Mingbuloq tuman hokimining
2024-yil 4-oktabrdagi
514-6-81-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Mingbuloq tumanida tibbiyot va sog'lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish

CHORA-TADBIRLARI DASTURI

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Moliyalashtirish manbasi	Amalga oshirish muddati	Mas'ul boshqarma va tashkilotlar	Nazorat
1	Tog'li, shifobaxsh balchiq qatlamlari bor hamda shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilgan va sanitariya-sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik (termal suv) ob'ektlari mavjud bo'lgan hududlarda sanatoriy-kurort zonalarini tashkil qilish.	1. Normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqish. 2. Loyihani belgilangan tartibda viloyat hokimligiga kiritish.	-	2025-yil mart	Tibbiyot birlashmasi	Tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov
2	Sanatoriyalarda bosqichma-bosqich ochiq va yopiq suzish havzalari, sauna, fitnes sport maydonlari (basketbol, tennis va voleybol) va bolalar maydonchalarini tashkil qilish.	Amaliy chora tadbirlar	Ijrochilar mablag'lari	2024-2026 yillar	Tegishli tashkilotlar	Tuman hokimining o'rinbosari J.Raximov